

## AN'ANAVIY IJROCHILIKDA SOZANDA MAHORATI



**Farruxbek Abdugʻaniyevich Abduazimov**

Yunus Rajabiy nomidagi Oʻzbek milliy musiqa sanʼati instituti  
“Vokal va cholgʻu ijrochiligi pedagoglarini tayyorlash” kafedrasini  
oʻqituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V5-01-04>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada anʼanaviy cholgʻularning qisqacha taʼrifi (rubob), anʼanaviy sozandaning ijrochilik mahoratini shakllantirish yoʻllari, sozandaning ijrochilik apparati, musiqa cholgʻularining ijro imkoniyatlari hamda mohir ustoz sozandalarning ijro usublari haqida fikrlar yoritilgan.

**Kalit soʻzlar:** anʼanaviy cholgʻu, ijrochilik mahorati, sozanda, tarixiy-madaniy meros, maqom.

**Аннотация:** В данной статье кратко рассматриваются традиционные музыкальные инструменты (рубоб), пути формирования исполнительского мастерства традиционного музыканта, его исполнительская техника, возможности инструментов и исполнительские стили мастеров-музыкантов.

**Ключевые слова:** традиционный музыкальный инструмент, исполнительское мастерство, музыкант, историко-культурное наследие, статус, мелодия, музыкальное творчество, исполнительский аппарат, аккомпанемент, нота, резонатор.

**Abstract:** This article provides a brief description of traditional musical instruments (rubab), the ways of shaping the performance mastery of traditional musicians, the performance technique of the musician, the performance possibilities of musical instruments, and the performance styles of skilled master musicians.

**Key words:** traditional musical instrument, performance skill, musician, historical-cultural heritage, status, tune, musical creation, performance apparatus, accompaniment, note, resonator.

Har bir millatning oʻtmish tarixi, oʻz ona tili, urf-odati, madaniyat va sanʼati boʻlganidek, oʻzbek xalqining ham boy tarixi, madaniy merosi bor. Ana shunday madaniy merosimiz hisoblangan anʼanaviy ijrochilik yoʻnalishining sozandalik sanʼati haqida ushbu maqolamizda soʻz yuritamiz.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Madaniyat va sanʼat sohasini yanada rivojlantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi №PQ-112-sonli Qarori eʼlon qilinganligi xalqimizning madaniy hayotida muhim hodisa boʻldi. Unda madaniyat va sanʼat sohasida isteʼdodli yosh ijodkorlarni izlab topish va qoʻllab-quvvatlash, taʼlim muassasalarini milliy cholgʻular, musiqa darsliklari, nота toʻplamlari va oʻquv-metodik adabiyotlar bilan taʼminlashning yaxlit tizimini yaratishga alohida eʼtibor qaratilgan boʻlib, bu kelgusida milliy mumtoz musiqa sanʼatini xalqimiz orasida keng ommalashishi hamda mazkur sanʼat turi boʻyicha koʻplab isteʼdodli yoshlarni kashf etish imkonini beradi[1].

Anʼanaviy cholgʻularini yigʻish va oʻrganish boʻyicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919-yili Toshkentda musiqiy-etnografik boʻlim ochiladi va u bu boʻlimga rahbarlik qiladi. Bu boʻlim olib borgan ishlardan biri xalq cholgʻulari kolleksiyasini yigʻish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini oʻrganish boʻldi.

Maʼlumki, maqomlarga, xalq kuy va ashulalariga talab xalqimizning orasida tobora ortib bormoqda. Ana shunday talab va extiyojni qondirish maqsadida yetuk ijrochi mutaxassislarni tarbiyalash masʼuliyatli vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbek xalqining boy musiqa merosini o'rganish va uni keng omma ichida targ'ib qilish ishlari san'atimizning jonkuyar tashabbuskorlari, mohir ijrochilari zimmasida bo'lmog'i lozim. Chunki, bizning davrimizgacha yetib kelgan ulkan musiqiy merosning ustozdan shogirdga o'tib kelishi, bunda, bevosita tabarruk zotlar ko'prik vazifasini o'tash bilan birgalikda o'zlarining ijodlari bilan ham namuna bo'lganlar[2].

O'zbek musiqa san'ati asrlar osha o'zbek xalqi tomonidan ulug' ma'naviy qadriyat sifatida ardoqlab kelingan. U yillar osha og'zaki uslubda shakllanib, rivojlanib kelgan, xalq orasidan yetuk bastakorlar, ijrochilar yetishib chiqqan. O'zbek xalqining urf-odat, an'ana va marosimlariga alohida e'tibor berilishi ma'naviy tiklanish jarayoni jadal kechayotgan hozirgi kunda muhim ahamiyatga ega. Chunki yoshlarni yangicha ruhda tarbiyalash, ularning ongiga milliy mustaqillik g'oyalarini chuqurroq singdirish, ajdodlarimiz yaratgan qadriyatlar mohiyatini keng targ'ib qilishda an'ana va marosimlar mohiyatini anglash, ularni chuqurroq tushuntirish milliy istiqlol g'oyasini keng omma orasiga yoyishning ta'sirchan vositalaridan biri hisoblanadi.

O'zbek xalq musiqa ijodi xalqning an'analarga boy va badiiy barkamol musiqa ijodi namunalari o'zida mujassam etib, yosh avlodni tarbiyalashda o'tkir did, yuqori badiiy saviya va nafis tuyg'ularni shakllantiradi. Xalq kuy va qo'shiqlarini o'rganish jarayoni, ko'p asrlik qadriyatlarimizning qayta tiklanishi muammosi yillar davomida o'rganib kelinmoqda. Bunda xalq tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodiyotining professional janri, ularning yaratilish tarixi, nisbatan murakkab janrlar, og'zaki an'anadagi professional musiqa tarixi va ko'p asrlar davomida rivojlanib kelayotgan o'zbek musiqa madaniyatiga ta'siri juda ham katta.

O'zbek xalq musiqa merosining an'anaviy ijrochilik sohasiga murojaat etar ekanmiz, hozirda serqirra, serjilo hamda sayqal topgan pallaga yetib kelganligini inkor etib bo'lmaydi. Ustozdan shogirdga og'zaki ravishda o'tib kelayotgan an'anaviy musiqa merosimizning bugungi ijrochiligi sohasi shundan dalolat beradi.

Har bir cholg'u sozini chalishga o'rgatishdagi eng zarur shartlardan biri ijrochilik apparatini tartibga solishdir. Ijrochilik apparati, keng ma'noda olganda, xilma – xil tushunchalarni, ya'ni ijrochining o'tirish yoki turish holati va musiqa asbobining joylashtirilishi, chap va o'ng qo'llarning holati harakati, mizrob (mediator), nohun, kamon, cho'pni ushlashni o'z ichiga oladi. Shuning uchun chalishga o'rgatishning dastlabki paytlarida amaliy mashg'ulotlarga kirishilar ekan, o'qituvchi o'z shogirdining qo'llarini to'g'ri tutish, to'g'ri o'tirish yoki turishiga alohida e'tibor berishi zarur. Sozandaning dastlabki tayyorgarligi davrida o'qituvchi tomonidan yo'l qo'yilgan xato uning ijrochilik faoliyatida jiddiy kamchiliklarni keltirib chiqaradi. Sozanda turli musiqa cholg'ularini chalayotganda qiynalmasligi uchun qulay, shu bilan birga, tashqi tomonidan qaralganda, chiroyli va ixcham o'tirishini yoki turishini bilishi kerak.

An'anaviy ijrochilikda pozitsiya almashuvlari, ya'ni chap qo'l barmoqlarining pardalardagi harakatlarida, nola, qochirim va turli ornamental – bezaklarni ijro qilishda 1, 2-barmoqlar asosiy vazifani bajaradi. 3, 4-barmoqlar esa ko'proq forshlagsimon qochirimlarni ijro qilishda muhim o'rin tutadi. Maqomlarning ashula bo'limlarini cholg'u sozlarida ijro qilishdan oldin uni so'zlari bilan xirgoyi qildirgan ma'qul. Ashula yo'llaridagi kuylarning har bir jumla (frazasi) albatta g'azallar vazn o'lchovlariga to'g'ri kelmog'i lozim. Ana shundagina ashula yo'llarini cholg'ularda to'la va benuqson ijro qilishga erishiladi[3].

Xalq an'anaviy ijrochiligi inson tafakkuri, inson qalbi, his-tuyg'ularini musiqiy sadolar orqali aks ettirilishidir. Bu albatta ma'lum shaklga asoslanishi shart degani emas. Balki, har bir taklif etilgan sayqal bezaklarga ijodiy yondashish bizni asosiy ezgu maqsadimizdan biridir. Har tomonlama mukammal bo'lgan an'anaviy ijrochilik bo'yicha bo'lajak sozandani tarbiyalash o'ziga xos mas'uliyatli vazifadir. Bu ishda jiddiy va chuqur o'ylab tuzilgan dastur bo'lishi lozim. Qolaversa, har bir o'quvchining ijro imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, ijrochilik malakasini oshirish xususiyatlarini aks ettiruvchi shaxsiy reja asosida ish olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Lekin, an'anaviy musiqaga xos bo'lgan ohangni talqin etish mezoni bunda asos sifatida xizmat qilishi lozim. Bu asos musiqiy merosimizda muhrlangan va ijrochilik amaliyotida charxlangan yo'nalish, sayqal va bezaklardan tashkil topadi. Har bir cholg'uda o'z imkoniyati doirasida tovush sadolantirish xususiyatlari mavjud. An'anaviy ijrochilikda mavjud texnik jarayonlar, musiqiy

bo'yoqlar milliy musiqamizga xos badiiy musiqiy obrazlarning ifodalanishi va ifodaviy vositalarning izchil amalga oshirilishi natijasida amalga oshiriladi[4].

Bugungi kunda O'zbekiston va Tojikistonda rubob deyarli ikki turda – afg'on yoki buxoro rubobi va o'tmishda uyg'ur musiqa hayoti va ma'lum darajada ular orqali respublikamizning Farg'ona vodiysi xududlari uchun xos bo'lgan qashqar rubobi O'zbekiston, Tojikiston va O'rta Osiyoning o'zbek-tojik va uyg'urlar yashaydigan xududlarida yakkanavoz va jo'navozlik cholg'u sifatida ommalashdi.

Turli yo'nalishdagi asarlarni ijro etishda qashqar rubobi uchun harakteri bilan o'ziga xos (torlar) sozlanishlaridan foydalanilgan. Asarni o'quvchiga o'rgatish jarayoni samarali bo'lishi uchun o'quvchiga asarni nota matni bilan tanishtirilib so'ng asarni mayda qismlarga bo'lib o'rganish anchagina samarali usul hisoblanadi. Asari qismlarga bo'linganidan so'ng har bir mayda qismni avvalo o'qituvchi o'quvchiga ijro qilib berishi va undan so'ng asarni nota asosida asta sekinlik bilan o'quvchini o'rganish qobiliyatiga tayangan holda mayda qismlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchiga o'rgatiladi. Iloji boricha asar haqida to'liq ma'lumot berish o'quvchiga asarni shaklu-shamoyili haqida aniqroq tushuncha bo'lishiga xizmat qiladi. Zamonaviy jarayonga kelib, an'anaviy afg'on yoki buxoro rubobining ijro imkoniyatlari hamda tabiiy xususiyatlariga mos tushadigan ma'lum cholg'u kuylari yaratila boshlandi. Bu cholg'u asbobining bizning xududlarimizga qachon kelganligi va ommalashganligi haqida ba'zi ma'lumotlar mavjud. Chunonchi, Darvesh ali Changiy "Musiqiy risolasida" yozilishicha, rebab Sulton Muhammad Xorazmshox davrida qo'llanishda bo'lgan besh roeli cholg'u. Uning to'rt tori ipakdan, biri kumushdan yasalgan. Mazkur torlaridan tashqari tovush tebranishi natijasida aks sado beruvchi 12 ta tor osti simlari mavjud bo'lib, ular chertilmagan. Xorazmshohlarning saroyida sozandalar Ichida rebab yo'nalishida ustod Maxmudga tenglashadigani topilmagan. Shuningdek, rubob tasviri aks ettirilgan manba sifatida XVI asr miniaturalaridagi tasvirlar ushbu cholg'uning o'sha davr musiqiy hayoti uchun harakterli bo'lganligidan dalolat beradi[5].

Afg'on rubobi ko'rinishi va ijro uslubi jihatidan boshqa cholg'ulardan ajralib turadi. Uning katta rezonatori va mavjud to'rt pardasi, ya'ni parda boylangan kalta dastasi tut daraxtlaridan yasaladi. Bu ham uning o'ziga xos tembrining zaminidir.

Hajmi katta, baland avjli kuylarni ijro etishda rubob dastasining davomi sifatida rezanator qopqog'ining ustki qismiga dastadagi asosan 4 pardadan tashqari o'rnashtirilgan 6,7 haspardalar bo'ladi.

An'anaviy ijrochilikda buyuk ustoz benazir sozanda va bastakor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Faxriddin Sodiqovning ijro uslubi o'zbek musiqasi ijrochiligida yangi bir sahifa ochdi. Dutorning imkoniyatlarini to'la ochib berishda va mumtoz asarlarni ijro qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Faxriddin Sodiqovning bu darajadagi ijro uslublari – mavjud barcha ijrolar va ulardan o'zgacharoq harakatlarni mujassamlashtirgan. Bu avvalambor ijrochi tomonidan juda nozik va mayin cholg'u chertishdan iboratdir. Ya'ni ijrochining o'ng qo'li harakatida dator qopqog'ida tegmasdan torlarini sadolantirishi lozim. O'ng qo'lning mayinligi juda muhim. Ajoyib sozanda, mohir ustoz – Muallim, o'zbek maqomlari va bastakorlik ijodiyotining bilimdoni sifatida Abdurahim Hamidov o'zining butun ijodiy faoliyati davomida ustozning ijro uslubini yanada boyitib, sayqallantib, ijroning yanada mukammallashishiga erishadi. Abdurahim Hamidovning buyuk ishlaridan yana biri– "Shashmaqom" ning mushkilot qismini magnit tasmalariga muhirlaganligidir. Ayni paytda ushbu musiqiy yozuvlardan keng foydalanib kelinmoqda.

Shuni aytub o'tish lozimki, hozirgi davrda sozandalik san'ati oddiy musiqiy ijrochilik g'oyasi asosida shakllanib, jamiyatning milliy-madaniy yuksalishni ta'minlashda muhim omil sifatida xizmat qilib kelmoqda. Shuning uchun san'atning bu turi yurtimizning ijtimoiy – ma'anaviy beqarorlik nrgizida shaklan va mazmunan boyigan o'zbek milliy sozandaligining barcha ko'rinishlarini o'zida uyg'unlashtirgan badiiy faoliyat natijasining ijobiy na'munasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112-son qarori
2. Y.Rajabiy, I.Akbarov, "O'zbek xalq musiqasi" I- II- III tomlar, Toshkent. O'z.davrnashr 1955
3. K. Olimboyeva, M. Ahmedova. "O'zbek xalq sozandalari" Toshkent 1959 yil
4. U.S.Kadirov Cholg'u ijrochilik mahorati: muammo va yechimlar. Madaniyat va san'at jurnali № 1 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2024-1>
5. Rixfatilla Qosimov "An'anaviy ijrochilik" o'quv qo'llanma Toshkent, "FAN" nashriyoti.